

UZLUKSIZ TA'LIMDA AHMAD YUGNAKIYNIYNING "HIBBAT UL-
HAQOYIQ" ASARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIC TEXNOLOGIYA ASOSIDA
O'QITILISHI

Abdusattorova Dilshodabegim Xusanboy qizi

Toshkent shahar Shayxontohur tuman

167-maktab Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilari uchun pandnoma asarlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, pandnoma, interaktiv, metod, qo'lyozma.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining asosiy sabablaridan biri shuki, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, endi zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari mustaqil qidirib topishlariga, tafakkur yuritishlariga, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatmoqda. O'qituvchi bu jarayonning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi, va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik va yo'naltiruvchanlik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Har bir xalqning tili va adabiyotining rivojlanish tarixi o'sha xalqning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi va dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi.

Ajdodlarimizning ulkan aqliy salohiyati bilan yaratilgan asarlar, ularda ifodalangan purhikmat, sermazmun fikrlar hamma zamonga tegishli bo'lgan ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ana shunday asarlardan biri Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asaridir. Ahmad Yugnakiyning purhikmat so'zlari, so'nmas, didaktik asari ta'limning yuqori bosqichlarida o'tiladi, shu jumladan "Hibbat ul-haqoyiq" dostoni ham ta'limning 10-sinf darsligiga kiritilgan bo'lib, falsafiy va ilmiy, ahloqiy-ta'limiy mushohadaga boy asar hisoblanadi. Asar ilk marta turk olimi Najim Osim tomonidan topilgan va o'rganilgan. Asarning uch qo'lyozma nushasi mavjud. Asar yozilishida Sharq an'analari davom ettirilganligini ko'rish mumkin. Qolaversa, dostonda an'anaviy hamd va na'tdan iborat dastlabki boblar ham Ahmad Yugnakiyning Sharq adabiyotidan yaxshigina xabardor ekanligini bildiradi. Doston 14 bobdan iborat bo'lib, asosiy boblar 5-bobdan boshlanib, undagi boblardan olinadigan asosiy xulosa: ilmning manfaati, jaholatning zarariga e'tibor qaratish va uning mohiyatini o'quvchiga yetkazishdir. Adib kuzatuvchan – tom ma'noda hayotiy haqiqatni teran angelaydigan donishmand. Uning o'g'itlari hamma zamonlarda ham jamiyatni sog'lomlashtirishga xizmat qilib kelgan.

Ta'lim samaradorligini oshirish uchun darslikda o'quvchiga tushunishni yengillashtirish uchun ushbu matn va tasvirlar o'zgarishi, voqealar o'zgarishiga qarab besh qismga bo'lingan va ularning mazmuniga mos keluvchi sarlavha tanlangan. Har bir bobdan

keyin shu bobga doir tegishli savol va topshiriq berilgan. Har bir bayt so'ngida baytning tabdili berilgan:

Sakkizinchi bobda muhim hayotiy masalalar ko'tarilgan bo'lib, bular tilni tiyish va odob-ahloq haqida.

Tiling bekta tutg'il, tishing sinmasun,

Qali chiqsa bekta, tishingni siyur

(Tilingni tiy, tut, tishing sinmasin, agar so'zlab yuborsang, tiling chiqib qolsa, tishingni sindiradi) deb oddiy hayotiy haqiqatni anglashga o'rgatadi. Bu o'git asrlar davomida hayot sinovidan o'tgan.

O'quvchi avval har bir baytni o'qiydi, keyin satrlar ostidagi bugungi tilda berilgan ko'rinishi bilan solishtiradi.

Asarda tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar chiziqcha "-", yoki "ya'ni" so'zidan keyin keltirilgan. Asarni o'qish jarayonida kelib chiqqan ba'zi bir muammolarni bartaraf etish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun turli xil innovatsion texnologiyalarni kiritish lozim. Ular quyidagilar:

"Tushunchalar tahlili"

Bu metodda o'quvchilar 6 yoki 7 kishidan iborat guruhlariga ajraladilar. O'qituvchi har bir guruh uchun alohida plakat tarqatadi. O'quvchilar plakatda yozilgan tushunchalarning izohlarini yozishlari kerak bo'ladi. Ularga ma'lum vaqt ajratiladi, o'quvchilar izohlarini yozib tugatgach, har bir guruhdan bittadan o'quvchi ketma-ketlikda o'qiy boshlaydi. O'qituvchi ularning tog'ri yoki notog'ri ekanligini tekshiradi. Bu metod o'quvchining har bir bayt tabdilini o'qib, "Mazmuni shunday ekan-da?" – deb o'tib ketishiga yo'l qo'ymaydi. O'quvchi bu metod orqali fikrlarning o'ziga xosligini tushunib yetadi. Masalan:

1. Bilik-..... 2. Bahaliq-..... 3. Karimrak-..... 4. Bezizlar-.....

"Uch yolg'on va bir haqiqat usuli"

Bu metodda o'qituvchi o'quvchilar bilan individual tarzda ishlaydi. Bunda o'quvchilarga "Hibbat ul-haqoyiq" haqida 3 ta yolg'on va 1 ta haqiqat bo'lgan fikrlar yozilgan kartochkalarni tarqatadi. O'quvchilar qaysi fikr to'g'ri qaysi biri noto'g'ri ekanligini topishlari kerak bo'ladi. Ajratilgan ma'lum vaqt ichida o'zlariga tegishli bo'lgan kartochkalarga ketma-ketlikda javob beradilar. O'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini tuzatadi va muammoli vaziyatlarda umumlashgan xulosa yasaydi. Masalan:

1-kartochka.

1. "Hibbat ul-haqoyiq" Mahmudxonga bag'ishlangan
2. Ikkinchi bobda Qorun haqida fikr yuritiladi
3. Aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan.
4. Sakkizinchi bob tilni tiyish, va odob-ahloq haqida

Bu metodda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Guruhlarga o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan rangli biletlar tarqatiladi. Rangli biletlar qaysi rangda bo'lsa, o'quvchilar asar bosh qahramoni Shoh Bahrom uchun qurilgan rangli saroylarni va ular bilan

hikoyatlarni navbatma-navbat sanashlari kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi. Asarda keltirilgan fikrlarni yodda saqlash va o'z mustaqil fikriga tayangan holda muayyan xulosaga kelishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bunday texnologiyalar hozirgi vaqtda ta'lim bosqichlarida adabiyot o'qitishning samaradorligini oshiradi. Ularning har birini darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlansa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. An'anaviy dars shaklining ayrim afzalliklarini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman texnologiya va metodlar bilan boyitish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining o'sishiga olib keladi. Ta'lim va tarbiya sohasidagi bunday o'zgarishlar yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Qosimjon Sodiqov. Hibbat ul-haqoyiq{Matn}:asar\Adib Ahmad Yugnakiy.T.:Akademnashr,2019.
- 2.Ahmad Yugnakiy. "Hibbat ul-haqoyiq"
- 3.Ziyonet.uz. O'qitishda foydalaniladigan interfaol usullar.